

bahoning ortishi; o‘zaro psixologik qo‘llab-quvvatlanishga intilish.

2. Xulqda ifodalanuvchi o‘xshash jihatlari:

Ratsional altruistik xulq va «niqoblangan egoizm»: «yashash uchun kurash»da ifodalanadi; o‘zgalarga yordam berish; emotsional intellektning yuqoriligi; ijtimoiy kutuvlarga mos ijtimoiy me‘yorlar doirasida harakatlanish; o‘z shaxsiga nisbatan hurmatning ortishi; gumanistik hislar bilan bog‘liq qadriyatlarining yaqqol ifodalanishi. Yuqorida 1-rasmda keltirilganidek, ratsional altruizm va «niqoblangan egoizm»ning o‘zaro differensial va integrativ xususiyatlari tahlil qilinganda to‘rtta mezon yaratib olingan. Mazkur mezonlar quyidagicha ifodalanadi:

1. Xulqda gumanizmning ifodalanishi: ratsional altruistik xulqda gumanistik hislar «beg‘arazlik» tamoyiliga asoslangan empatiyaviy identifikatsiyaning kuchliligi bilan bog‘liq shaxs yo‘nalganligida aks etsa, «niqoblangan egoizm»da transtendentiv individualizmning, ya‘ni egotsentrik hislarning noegotsentrik shaklda «psixologik qo‘llab-quvvatlanish» ehtiyoji ta‘sirida ifodalanishi bilan bog‘liq bo‘ladi. Bu yerda transtendentiv individualizm shaxsdagi egotsentrik hislarni transformatsiyalangan holda, ijtimoiy kutuvlarga mos ravishda harakatlanishni ta‘minlovchi emotsional reaksiyalar shaklida ifodalanishi hisoblanadi.

2. Emotsional intellektning ifodalanishi: ratsional altruistik xulqda emotsional intellekt ijtimoiy persepsiya mexanizmlaridan identifikatsiya va refleksiyaning ustuvor intensiv namoyon bo‘lishi bilan, «niqoblangan egoizm»da esa ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanish ehtiyojini faollashtiruvchi emotsional qadriyatlar tizimidagi hissiy munosabatlarni konstruktiv yo‘lga qo‘yish, mehr almashinish, o‘zgalarga tolerant munosabatda bo‘lish orqali o‘ziga shunday munosabatning qaytishini kuchaytirish bilan bog‘liq bo‘ladi.

3. Ijtimoiy me‘yorlarga mos harakatlanish: ratsional altruistik xulq egalari tomonidan ijtimoiy ta‘sir mexanizmlarini (ijtimoiy me‘yor, ijtimoiy sanksiya, ijtimoiy ustanovkalar) anglanilganlik darajasi yuqori bo‘ladi va aynan mana shu ijtimoiy me‘yorlarning anglanganlik darajasi ularni chin ma‘noda «insoniylik qonunlari» asosida yashashga undaydi va atrofdagilarning

hayoti uchun ijtimoiy mas‘uliyat va javobgarlik hissining yuqori bo‘lishini ta‘minlaydi. «Niqoblangan egoizm»da esa o‘z mavqei, o‘z «Men»ini tan olinish istagi bilan bog‘liq ehtiyojlar shaxsni ijtimoiy kutuvlarga mos harakatlanish tendensiyasini oshiradi. Natijada shaxs guruh, jamiyat a‘zolarining ijtimoiy kutuvlariga moslashishga va o‘z ijtimoiy mavqei axloqiy tamoyillar asosida oshirishga intiladi.

4. Biologik asosdagi yashash uchun kurashning o‘ziga xos shakli: ratsional altruistik xulq ham, «niqoblangan egoizm» ham aslida «yashash uchun kurash»ning o‘ziga xos shaklidir. Faqat ratsional altruistik xulq naslga g‘amxo‘rlik qilishda «beg‘arazlik» tamoyiliga asoslansa, «niqoblangan egoizm» o‘z manfaatlariga erishish, jamiyatga integratsiya bo‘lish uchun ijtimoiy ma‘qullangan shaklda harakatlanish bilan bog‘liq «biosotsial manfaatlar»ga asoslanadi [1].

Shunday qilib, shaxsda o‘zgalarga yordam berishga qaratilgan altruistik xulq bilan «niqoblangan egoizm» orasidagi farq xatti-harakatlarimizda ko‘pincha sezilmasada, bizning axloqiy hislarimizda, motivatsion sohamizda o‘z aksini topadi.

Yuqorida keltirilgan tahliliy ma‘lumotlar asosida quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1. Altruizm fenomeni negizida ifodalanuvchi altruistik xulq shaxsning ma‘naviy qiyofasini belgilab beruvchi, uning jamiyat hayotiga daxldorligini, yurt manfaatlarini ustun qo‘yishini anglatuvchi vatanparvarlik hissining motivatsion jihatini asoslovchi xulq-atvor shakli hisoblanadi;

2. Shaxsdagi altruistik xulqning ratsional shakli beg‘arazlik tamoyiliga asoslanib ijtimoiy adolat, o‘zaro hurmat, hamkorlikdagi faollikni namoyon qilishda intellektual xususiyatlarga ustuvorlik berilishi bilan tavsiflanadi;

3. Ratsional altruistik xulq va «niqoblangan egoizm»ning differensial va integrativ xususiyatlari «xulqda gumanizm»ni, «emotsional intellekt»ni ifodalanishi, «ijtimoiy me‘yorlarga mos harakatlanish» hamda «biologik asosda yashash uchun kurash» mezonlariga muvofiq tasniflanishi mumkin.

#### Adabiyotlar

1. Atabaeva N.B. Shaxsda altruistik xulqni rivojlantirishning psixologik asoslari. / Psixol.f.d. (DSc) diss. -T.: TDPU. 2022, 22-23-b.
2. Головин С.Ю. Словарь психолога-практика. - Минск: Харвест. 2001. - С. 27.
3. Ильин Е.П. Психология помощи: Альтруизм, эгоизм, эмпатия. СПб. - Питер: 2013. -С.254 - 261.
4. Ильин Е.П. Психология общения и межличностных отношений. СПб. -Питер: 2009. - С.576.
5. Кандаков И.М. Психология иллюстрированный словарь. СПб. Прайм-Еврознак. 2007. -С. 25.
6. Кравченко С. Предвосхищение. Т 2. Словарь с комментариями. - М.: ЛитРес. 2018. -С.465.
7. Майерс Д. Социальная психология - СПб. -Питер: 2002. -С.639.
8. Психологический словарь. Под ред. В.П.Зинченко, Б.Г.Мещерякова. Изд-е 2-е. -М.: Прайм. 1997. -С.18.
9. Соловьёв В.В. Оправдание добра. // В.В.Соловьёв Соч в 2 тт Т.1 -М.: "Мысль". 1988. -С. 152-169.
10. Jonathan Seglow (Ed.)/ The Ethik of Altruism. Routledge chapman & Hall. London. 1986. -P. 225.
11. Internet saytlari: <https://rg.ru/documents/2015/06/08/vospitanie-dok.html> (murojaat holati 2021 yil 15 dekabr).

**REZYUME.** Mazkur maqolada ratsional altruizmning «niqoblangan egoizm»dan farqli hamda integral jihatlari psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируются различные и интегральные аспекты рационального альтруизма от «замаскированного эгоизма» с психологической точки зрения.

**SUMMARY.** This article analyzes the different and integral aspects of rational altruism from "disguised egoism" from a psychological point of view.

#### KASBIY STRESS VA KASBIY SO‘NISH HOLATLARINI TASHHISLASHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

**D.B.Botirova – katta o‘qituvchi**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

**Tayanch so‘zlar:** kasbiy stress, kasbiy so‘nish, kasbiy zerikish, kasbidan bezish, kasbiy o‘zlik, kasbiy “men”lik, kasbiy malaka, kasbiy hamkorlik, kasbiy layoqat.

**Ключевые слова:** профессиональное стресс, профессиональное выгорание, профессиональная скука, профессиональная идентичность, профессиональное "Я", профессиональная компетентность, профессиональное сотрудничество, профессиональная ответственность.

**Key words:** occupational stress, professional fading, professional boredom, professional identity, professional self, professional competence, professional cooperation.

Jahon miqyosida ijtimoiy intergratsiya, globallashuv va axborotlashgan tendensiyalarining kuchayib borishi ta‘lim

tizimida pedagoglarning ijtimoiy-psixologik kompetentlik masalariga bugungi zamonaviy talablar asosida yanada

jiddiyoq e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Jumladan pedagoglarning bugungi kunda kasbiy faoliyatda yuzaga kelayotgan kasbiy stress omillarini o'rganish, ularning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabi ustuvor masalalar bo'yicha muhim tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar talabiga to'la javob beruvchi, intellektual salohiyati yuqori, keskin o'zgarishlar tez moslasha oladigan, raqobatbardosh, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1].

Respublikamizda pedagog kadrlarga bo'lgan talab oshib borishi bilan birgalikda ular oldiga ham bir qator mas'uliyatlarni yuklaydi. Shular jumlasiga pedagogning o'z kasbiga sadoqati, kognitiv salohiyati, kasbiy kompetentligi shular jumlasidandir. Bugungi kunda pedagoglar faoliyatida kasbiy stress nomoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi psixologik omillarni o'rganish orqali pedagoglarning kasbiy faoliyat samaradorligiga, ularning kasbiy va shaxsiy taraqqiyoti uchun muhim bo'lgan ilmiy-amaliy ishlar ko'lamini yaratish imkonini beradi.

Umuman olganda, kasbiy stressni keltirib chiqaruvchi omillardan biri kasbiy kompetentlikni yetishmasligi, pedagog faoliyatida salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Pedagogning kasbiy kompetentligi yuqori bo'lsa unda kasbiy stress vujudga kelmaydi deb aytishimiz mumkin. Kasbiy stress namoyon bo'lishida yana bir omil refleksivlik ya'ni shaxsda o'zini o'zi nazorat qilishning shakllanishi muammosi psixologiya fanining dolzarb masalalaridan hisoblanadi. O'zini o'zi nazorat qilish muammosi doirasida xorij psixologlari tomonidan bir qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, xorij psixologlari o'tkazgan tadqiqotlarda o'zini o'zi nazorat qilishning tarkibiy qismlari ya'ni o'zini nazorat qilishning tuzilishi, rivojlanish darajasi, shaxs xususiyatlari va psixik jarayonlar bilan o'zaro bog'liqligi, xulq - atvor va faoliyat jarayonida o'zini o'zi nazorat qilishning yosh va individual xususiyatlarga aloqadorligi masalalari atroflicha o'rganilib, bu borada katta hajmdagi ilmiy ma'lumotlar to'plangan [2].

Pedagogda kasbiy stress namoyon bo'lishida muloqotning ahamiyati kattadir. Agar pedagog muloqotga kirisha olmasa, unda muloqotdagi kommunikativlik mavjud bo'lmasa albatta unda kasbiy stressing vujudga kelish ehtimoli ko'proqdir. Shuning uchun pedagog muloqotning psixologik tomonlarini, muloqotning psixologik xususiyatlarini yaxshi anglamog'i lozim. Ayniqsa pedagoglarning kasbiy faoliyati muloqotni taqozo etadi [2].

U ta'lim oluvchilar bilan har doim muloqotda bo'lib ularni komil inson etib tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Demak muloqot, tashqi ta'sirlar, namunalar asosida o'zini o'zi tuzatish, qayta tarbiyalash, shaxsiy imkoniyatini ro'yobga chiqarish uchun puxta zamin hozirlaydi, komillik sari yetaklaydi.

Pedagog uchun kasbiy stressing nomoyon bo'lishida asosiy muammolaridan biri bo'lib muloqotdagi qiyinchiliklar hisoblanadi. Pedagogda muloqotdagi qiyinchiliklar natijasida shaxsiy diskomfort, xavotirlanish, psixologik siqilish kabilar kuzatiladi. Bular sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin.

-autistiklik, kuchli yolg'izlik hissi, begonalashish, muloqotdan qochish;

-ijtimoiy kommunabellikdagi qiyinchiliklar- kechirim so'rash, hamdardlik bildirish, nizoli vaziyatlardan samarali chiqish olish ko'nikmasining mavjud emasligi.

Yuqoridagilardan aksariyati, pedagog shaxsida muloqot jarayonida salbiy emotsiyalar, yangi muloqotlardan qochish, ishonchsizlik kabilarni uyg'otadi [3].

Dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy - iqtisodiy o'zgarishlar, mehnat intensivligining ortishi, axborot

oqimining ko'payishi, yangi texnologiyalar, bularning barchasi inson ekologiyasining buzilishiga sabab bo'layotgan

Birinchii raqamli sabab esa bu stressing ko'pligidir. Ta'lim muassasalari hozirgi kunda ustozlarga o'z vazifasidan ham ko'proq vazifa berishi va bu ularning kunlik majburiyatiga aylanib qolgani hech kimga sir emas.

Bu esa har qanday insonni charachatadi va ularni bu kasbdan ko'ngillari qolishiga sababchi bo'ladi. Psixologik tadqiqotlardan ham bu misolni yaqqol qayta va qayta tasdiqlagan desam mubolag'a bo'lmaydi. Agarda inson hayotida stress miqdori oshib ketsa bu uning kunlik samarador ishlashini pasaytirib yuboradi va albatta ruhiy holatiga ham ta'sir o'tkazmay qolmaydi. Chunki insonning ruhiy holati unga huddi jismoniy holatidek bir xil miqdorda zarar yetkazishi aniqlangan. Olimlarning so'nggi ta'dqiqotlariga asosan agar inson ruhiy tomondan iztirob cheksa u huddi taasidan zarb olgandek og'riqni his qilarg ekan [4]. Chunki bizning ong ostimiz va ongimiz huddi yosh bolaning ongi kabitdir. U haqiqat va yolg'onni anglay olmaydi. Bu so'zim bilan ya'ni agar siz bir yolg'on voqeani hayotda sodir bo'lgan deb ishonish ma'lumotini miyyangizga yetkazsangiz, u buni huddi hayotda bo'lgan deb hisoblaydi va bu buni jiddiy qabul qiladi. Shuning uchun pedagoglarni o'z ishi, rahbariyat va talabalardan davomli ravishda olayotgan stressi va ruhiy azoblari ularga ta'sir etmay qolmaydi. Shuning ucun ham bu ularni kasblaridan so'nishga olib keladi.

Hozirgi kunda jamiyatning talablari maktablarda kun sayin o'sib bormoqda va bu vazifalarni hal etish pedagogning vazifasiga bog'liq. Endi esa pedagogning asosiy vazifalari to'grisida gaplashib o'tsak.

Pedagogning eng birinchii raqamli vazifalari:

1. Kasbiga o'zini bag'ishlashdir. U qanchalik o'quvchilarni yaxshi ko'rsa va o'zinig o'qitayotgan fanini yaxshi ko'rsa undan haqiqiy ilmu-toliblar yetishib chiqadi.

2. Kasbiga bo'lgan ma'suliyat;

3. Bolalarga ma'rifa va ma'naviyat tushunchalarini o'rgatish;

4. O'zini-o'zi nazorat qilish, sabr, chidamlilik va qat'iyatlik Bulardan tashqari hozirgi kunda ustozlarga qo'yiladigan talablar ham mavjud. Bular:

1. Talabalarni ruhiy mustahkam va malakali kadr sifatida yetishtira oladigan pedagog;

2. Keng qamrovli bilimiga ega bo'lish;

3. Yaxshi pedagogik va psixologik bilimiga ega bo'lish;

4. Oxirgi yangiliklardan xabardor bo'lish va o'z ustida davomli ishlash;

5. O'z o'qitishiga kreativ yondoshish;

6. Bolalarni va ularning ichki dunyosini tushunish;

7. Pedagogik texnikalarga ega bo'lish.

Yuqorida aytib o'tilgan talablar va pedagog tomonidan ega bo'linishi kerak bo'lgan ko'nikmalar pedagogni haqiqiy ma'noda professional pedagoglik darajasiga eltadi.

Hozirgi kunda pedagoglik faoliyati yuqori maoshga ega va talabgor kasblardan biri bo'lishiga qaramasdan bu kasbni tashlab ketayotgan va ba'zi bir yoshlarni bu kasbni egallashga bo'layotgan qiziqishlarini so'ndirayotgan omillar mavjud. Biz bugungi kunda zamonaviy taraqqiyyot davrida ya'ni XXI asrda yashab kelmoqdamiz va bu esa ba'zi bir muammolarga ham bizni yetaklamogda desak mubolag'a bo'lmaydi. Buning asosiy sababi hozirgi kundagi bizni hammamizga ma'lum bo'lgan ijtimoiy psixologik sabablardir.

Psixologik stressga har doim inson organizmidagi fiziologik moslashish mexanizmining natijasida sifatida qaraladi, uning biologik mexanizmlari esa o'zining alohida tabiati va mazmuniga ega. Bu ikki mexanizm haqidagi tushunchani aniqlashtirib olmasdan turib, stressli ta'sirlarga nisbatan inson tomonidan bildiriladigan murakkab va qarama qarshi xarakterga ega bo'lgan reaksiyalarni tushuntirib bo'lmaydi. Mashxur kanadalik fiziolog Gans

Sel'e esa 1936-yilda o'zining "Umumiy adaptatsiya sindromi" haqidagi birinchi ilmiy ishini nashr qildi, lekin uzoq vaqtgacha "stress" tushunchasini qo'llamay, uning o'rniga "nerv psixik zo'riqish" tushunchasidan foydalanadi.

Xulosa o'rnida aytib o'tishim lozimki, hozirgi kunda pedagoglik kasbi juda ham talabgor sohalaridan biri hisoblanadi. Buning asosiy sabablaridan biri undagi ishga ajratilayotgan imkoniyatlar va ba'zi bir xususiy sektorlardagi yaxshi to'lov. Lekin bu tangani ikkinchi tomoni yo'q degani emas [7]. Hozirda ustozlarga rahbariyat tomonidan beriladigan bosim va talabalarning ularga ko'rsatadigan ba'zi bir qo'shtirmoq ichidagi munosabati ularni kunlik stressga ega bo'lishiga sababchi bo'ladi desak adashmaymiz. Mana shunday stresslarning miqdori oshib

ketishi sababli ular bu kasbdan qaysidir ma'noda ko'ngli soviydi va bu ularni bir kun kelib bu kasbni tashlab ketishiga majbur qiladi.

Shaxsda kasbiy so'nish, stress yuzaga kelgan holda uni bartaraf etish uchun pedagogik jamoa birgalikda aniq reja asosida hamjihatlik bilan faoliyatlarini tashkil etishlari orqali mutaxassisni saflarida saqlab qolishlari mumkin. Mazkur faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda psixologni salbiy harakatlari alohida e'tiborga loyiq hisoblanadi. Ijtimoiy faoliyatda har bir shaxs bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kasbiy so'nish ma'lum bir vaqt oralig'ida o'tib ketish tabiiy hol hisoblanadi. Agar unga ijobiy yo'l-yo'riq ko'rsatish orqali yordam ko'rsatish mumkin.

#### Adabiyotlar

1. G'oziyev E.G'. Oliy maktab psixosi. -T.: «O'qituvchi», 1997, 197-b.
2. Qodirov K.B. "Kasb tanlashga tayyorlashgarlikning psixologik jihatlarini va professional loyihalar". -Toshkent: 2001, 36-b.
3. Shakarboyeva S. Bo'lajak o'qituvchilarda o'z istida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy - psixologik xususiyatlari. // Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. 2022, - T. 2. № 6.
4. Ушинский К.Д. Избранные педагогические сочинения. /Человек как предмет воспитания. Опыт педагогик антропология (1861). -М.: Академии наук РСФСР, 1945. -С.475.
5. Abdulakimovna S.S. 2021. O'qituvchilarning o'zini-o'zi rivojlanishi kasbiy kompetentlikni oshirish. Jahon ijtimoiy fanlar xabarnomasi, 3(10), 58-60.
6. Shakarboyeva S. Bo'lajak o'qituvchilarda o'z ustida ishlash faoliyatini tarbiyalashning ijtimoiy-psixologik JIHATLARI //Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii. 2022, -T. 2. № 6.
7. Botirova D.B. Pedagogik faoliyatda kasbiy so'nish jarayonining ijtimoiy - psixologik asoslari. // Jurnal Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar. 2023, -T. 2. № 3.

**REZYUME.** Mazkur maqolada shaxsning kasbiga nisbatan faolligi va qiziqishini so'nishi mexanizmlariga e'tibor qaratilgan, shu bilan birga mazkur holatdagi shaxslarga qanday yordam berish yo'llariga to'xtalib o'tilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье основное внимание уделяется механизмам, посредством которых у человека угасает активность и интерес к профессии, и в то же время акцентируется внимание на том, как помочь людям в данной ситуации.

**SUMMARY.** This article focused on the mechanisms of a person's activity and interest in professional activities, while also focusing on how it can help individuals in this situation.

### КИЧИК МАКТАБ ЁШИДАГИ ЎҚУВЧИЛАРДА АГРЕССИВ ХУЛҚ-АТВОР ШАКЛЛАНИШИДА ОММАВИЙ АХБОРОТ ВОСИТАЛАРИНИНГ ЎРНИ

А.Б.Конратбаева – таянч докторант

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институтини

**Таянч сўзлар:** кичик мактаб ёш даври, агрессия, агрессив хулқ-атвор, оммавий-ахборот воситалари, ўқувчи, ота-она, «Мажуд бўлмаган ҳайвон» проектив методикаси, оммавий маданият.

**Ключевые слова:** младший школьный возраст, агрессия, агрессивное поведение, СМИ, ученик, родитель, проективная методика «несуществующее животное», массовая культура.

**Key words:** primary school age, aggression, aggressive behavior, media, pupil, parents, projective technique "non-existent animal", popular culture.

Бугунги куннинг долзарб муоммолари каторида агрессив хулқ-атвор муоммоси жаҳон ва маҳаллий тадқиқотчилар томонидан чуқур ўрганилиб келинмоқда. Ҳозирги кунда ахборот-технологиялари ривожланган даврда жамиятнинг барча қатламларини, шу жумладан кичик мактаб ёши давридаги ўқувчиларни ҳам ўз домига тортмасдан қолмайди. Телевидение, телефон, интернет, ижтимоий тармоқлар орқали ҳар қандай ёшдаги инсон ва албатта ўқувчилар ўзларига керакли, кераксиз, зарарли видео лавҳаларни, кинолардаги салбий образли қаҳрамонларни ўзларига қабул қилиб олмақда. Биз айнан кичик мактаб ёши давридаги ўқувчиларда оммавий ахборот воситаларининг агрессив хулқ-атворни шаклланишига таъсири ҳақида ўрганаёلمиз. Бу ёш давридаги ўқувчилар таъсирчан ва эмоционал бўлиб, уларда олий ҳислар: эстетик, маънавий ва ахлоқий ҳислар шаклланади, ахлоқий жиҳатдан барқарор эмаслик ва кечинмаларнинг доимий эмаслиги кўзга ташланади. Шу билан бирга улар тажрибасиз томошабинлар сифатида оммавий-ахборот воситаларининг айниқса интернет тармоғининг қурбонига айланишади. Телевизор ёки телефон экранидида содир бўлаётган воқеаларни баҳолаш учун боланинг қиймат муносабатлари ҳали етарли даражада ривожланмаган бўлади. Кўп ҳолларда ўқувчининг томоша қилаётган лавҳа қаҳрамонининг агрессив ҳаракатлари (талончилик, жанжал, қотиллик, қуролда ўқ отиш, уриш ва бошқалар), унинг «ғалабаси» ўқувчида яхшилик ва ёмонлик

ўртасидаги фарқни англамасликга олиб келиши мумкин.

Статистика маълумотларига кўра АҚШда «Р» белгилли яъни 17 ёшдан кичиклар кўриши тақиқланган видео ўйинларнинг 80%, тақиқланган видео ўйинларнинг 70% 17 ёшдан кичик бўлган болаларга сотилмоқда. Бизнинг юртда бундай нарсалар давлат томонидан ҳимоя қилинади. Лекин, интернет тармоғидаги ҳар хил агрессив ҳаракатлар тасвирланган видео лавҳаларни ўқувчилар томонидан томоша қилинишини чеклаб бўлмайди. Зеро, ҳамма ота-оналар ҳам фарзандларининг телевизорда нимани томоша қилишига, қулоқчинда нимани эшитаётганига, қандай компьютер ўйинларини ўйнашига, қандай кино қаҳрамонларни севишига, телефонда ким билан гаплашаётганига, ижтимоий тармоқларда қандай гўруҳ, каналларга аъзо бўлганликларига етарлича эътибор бера олмайдилар. Шундан кўриниб турибдики, ўқувчилар зўравонлик, агрессив хатти-ҳаракатлар тасвирланган жангари кинолар, мультфильмлардаги саҳналарни томоша қилиб, улардаги қаҳрамонларга тақлид қила бошлайди.

Боланинг қандай униб-ўсиши ота-онага боғлиқ. Абу Ҳурайра (разияллоху анху)дан ривоят қилинган қуйидаги ҳадисда Расулulloх соллаллоху алайҳи ва саллам марҳамат қилиб, дедилар: «Ҳар бир гўдак албатта тоза фитратда (яъни Ислом фитратида) туғилади. Лекин ота – онаси уни ё яҳудий, ё насроний, ё мажусий қилади. Бунинг мисоли шуки, чорва ҳайвони барча аъзолари мукамал бўлган ҳайвонни туғади. Ёки сиз-